

Transport nazorati inspeksiyasi tomonidan 2024 yil davomida sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan

MA'LUMOT

Avtomobil va suv transporti nazorati yo'nalishi bo'yicha:

Transport vazirligi va Ichki ishlar vazirligi hamkorligida **2024 yil uchun qo'shma rey**d tadbirlari rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Ushbu **qo'shma rey**d tadbirlari rejasiga asosan **2024 yil** davomida avtomobil transportida nazorat hududiy bo'limlari inspektorlari tomonidan Ichki ishlar vazirligining hududiy YHXB boshqarmalari bilan hamkorlikda Respublika bo'yicha jami **13567 ta** rey-d-tadbirlari o'tkazildi.

Ushbu rey-d tadbirlari davomida **avtomobil tashuvlari** sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan **116106 ta** ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksning:

- **125²-moddasi** bo'yicha **809 ta**;
- **145-moddaning 2-bandi** bo'yicha **890 ta**;
- **165-moddaning 3-4-bandlari** bo'yicha **5658 ta**;
- **176³-modda** bo'yicha **97997 ta**;
- **176⁴-modda** bo'yicha **10021 ta**;
- **198-modda** bo'yicha **333 ta**

ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, qonuniy chora ko'rilishi uchun **joylardagi jinoiy sudlarga** yuborildi.

Yo'lovchi tashish faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanganligi aniqlangan huquqbuzarlarga nisbatan rasmiylashtirilgan **108018 ta** bayonnomalarga asosan **42141 ta** haydovchilar o'z vaqtida **litsenziya varaqasini** rasmiylashtirib, faoliyatini qonuniylashtirilishiga erishildi.

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilga kiritilgan Buyurtmalarning ruxsat etilganlari bo'yicha **217 ta** tadbirkorlik subyektlarda tekshiruvlar o'tkazilishi yakunlangan.

Kema reestriga **2024 yil** holatiga ko'ra o'zgartirishlar kiritildi va kemalar soni **316 tani** tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kema haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" **2020 yil 4 iyuldagi 421-sonli** qarori ijrosi yuzasidan kema haydovchilarini tayyorlash o'quv kursini tugatgan **20 kishi** attestatsiyadan o'tkazilib, ularga kema boshqarish huquqini beruvchi kema haydovchisi guvohnomalari berilib, talabgorlarni attestatsiyadan o'tkazildi va ularga kema haydovchisi guvohnomasini berildi.

Temir yo'l transporti nazorati yo'nalishi bo'yicha:

2024 yil davomida temir yo'l transporti xavfsizligini ta'minlash va texnik vositalarning ishonchliligini oshirishga qaratilgan jami **2512 ta** profilaktika tadbirlari

o'tkazildi.

Mazkur profilaktika tadbirlarida **jami 20758 nafar** temir yo'l tashuvlari bilan bevosita bog'liq ishchi xodimlar ishtirok etdi va ular bilan tushuntirish ishlari olib borildi.

34 ta temir yo'l transporti va metropoliten obyektlari, mahsulotlari va texnologiyalarining belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan ularni doimiy yoki vaqtincha foydalanishga qabul qilish ishlarida ishtirok etildi.

130 ta temir yo'l transporti va metropolitenda harakat xavfsizligi talablarini buzish holatlari bo'yicha temir yo'l transporti korxonalarini va tashkilotlari tomonidan olib boriladigan xizmat tekshiruvlarida ishtirok etildi va ushbu hodisalar hisobga olindi. Jumladan: "O'zbekiston temir yo'llari" AJga qarashli temir yo'llarda poezdlar harakat xavfsizligi buzilishi bo'yicha **64 ta** holat, shoxobcha temir yo'llarida **30 ta** xolat, "Toshkent metropoliteni" DUKda **36 ta** xolat qayd etilgan.

24 ta tashkilotlarni murojaatiga asosan attestatsiya komissiyalari ishida ishtirok etildi. Ushbu komissiyalarda **338 ta** xodimlar attestatsiyadan o'tkazildi.

Temir yo'llarda tashishlar xavfsizligini ta'minlash va temir yo'l kesishmalarida poezdlar harakat xavfsizligi buzilish hodisalarini oldini olish mavzusida ommaviy axborot vositalarida jami **122 ta** chiqishlar tashkil etildi.

Jumladan: **7** marotaba televidenie orqali, gazeta va jurnallarda **45 ta** hamda veb-saytda **68 ta** maqola chop etildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 8 oktabrdagi **387-sonli** qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, yuqori tezlikdagi temir yo'l uchastkalarida harakat xavfsizligini ta'minlash va obodonlashtirish bo'yicha Transport vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq **11 marotaba** (*Toshkent-Qarshi yo'nalishda*) Idoralararo komissiyasi sayyor yig'ilishlari tashkil qilindi.

Yanvar-noyabr oylari davomida jami **279 ta** tadbirkorlik subyektlari va davlat tashkilotlarida tekshiruvlar o'tkazilgan.

Tekshiruvlar jarayonida **18 452 ta** temir yo'l transportida harakat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi va texnik jihatdan tartibga solishga oid normativ hujjatlar talablari buzilishi, infratuzilma va harakat tarkiblarining nosozligi yoki foydalanish muddati o'tganligi bo'yicha kamchiliklar aniqlandi. Bunda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etilishiga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunga qadar **212 mlrd. 210 mln. 23 ming so'mlik 14591 ta kamchiliklar** bartaraf etilishiga erishildi.

Aniqlangan kamchiliklardan, aynan **harakat xavfsizligiga tahdid** soluvchi **4 919 ta** holat bo'yicha cheklovchi va ta'qiqlovchi choralar ko'rilgan. Shundan:

- **32 ta** temir yo'llarda, strelkali o'tkazgichlarda tezliklar cheklangan;
- **1172 ta** temir yo'llari izlari, strelkali o'tkazgichlar yopilgan;
- **226 ta** lokomotiv va drezinalar foydalanishdan qoldirilgan;
- **51 ta** yo'lovchi vagonlar foydalanishdan qoldirilgan;
- **449 ta** yuk vagonlari foydalanishdan qoldirilgan;
- **17 ta** yuk poezdlarini texnik tayyorgarligi bekor qilingan;
- **2972 ta** boshqa kamchiliklar aniqlangan.

Tekshirish natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan

tadbirkorlik subyektlariga taqiqlovchi choralarni belgilovchi, bajarilishi majburiy bo'lgan **578 ta ko'rsatmalar berilgan.**

Temir yo'l transportida **harakat xavfsizligi sohasi** bo'yicha inspeksiya tomonidan berilgan ko'rsatmalardagi jami **4949 ta** kamchilikdan **3866 tasi** bartaraf etilishi ta'minlandi. Qolgan **1053 ta** qoidabuzarliklar bartaraf etilishi nazoratga olindi.

Yo'l-qurilish ishlarini nazorat qilish yo'nalishi bo'yicha:

Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash obyektlarida bajariladigan qurilish-montaj va ta'mirlash ishlarining, shuningdek, ularda qo'llaniladigan materiallar hamda konstruksiyalarning shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda loyiha hujjatlari talablariga rioya etilishi yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat nazoratini ta'minlash bo'yicha quyidagilar amalga oshirildi.

Yo'l qurilish obyektlarida qurilish-montaj ishlarini bajarayotgan tadbirkorlik subyektlarida qoidabuzarliklarni oldini olishga qaratilgan **5589 ta** profilaktika tadbirlari o'tkazildi.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilayotgan **3966 ta** yo'l qurilishi obyektlarida qurilish-ta'mirlash ishlarida qoidabuzarliklarni aniqlash bo'yicha **xavfi tahlil etildi.**

2024 yil davomida **jami 2625 ta** (*shu jumladan: qurilish – 223 ta, rekonstruksiya – 364 ta, ta'mirlash – 1600 ta hamda qazish obyektlari - 438 ta*) nazorat qilish ishlari o'tkazildi, shundan:

xavfni tahlil etish natijalari asosida tadbirkorlik subyektlarida faoliyat yuritayotgan - **647 ta;**

davlat muassasasi bo'lgan pudratchilarning **1978 ta** yo'l qurilish obyektlarida nazorat qilish ishlari o'tkazilishi ta'minlandi.

Nazorat ishlari o'tkazilishi natijasida **jami 7009 ta** (*shu jumladan: qurilish – 774 ta, rekonstruksiya – 1182 ta, ta'mirlash – 4476 ta, qazish – 577 ta*) qoidabuzarliklar aniqlandi.

Qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha **2418 ta** (*shu jumladan: buyurtmachilarga – 457 ta, pudratchilarga – 1667 ta, qazish – 294 ta*) bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berildi.

Bugungi kunda **2240 ta** ko'rsatmalardagi **6001 ta** qoidabuzarliklarni ijro etish muddati kelgan bo'lib, amalda **2215 ta** ko'rsatmalardagi **5928 ta** qoidabuzarliklar bartaraf etildi.

Nazorat qilish ishlari natijasida **242 ta** obyektida aniqlangan **17 695 mln.so'mlik** sifatsiz bajarilgan ishlarining hajmini to'lovdan chiqarish bo'yicha buyurtmachilarga talabnomalar kiritildi.

Ijro etish muddati kelgan **230 ta** obyektidagi **13 237 mln.so'mlik** sifatsiz bajarilgan ishlar bartaraf etildi, bajarish muddati kelmagan **12 ta** obyektidagi **4 458 mln.so'mlik** sifatsiz bajarilgan ishlarining ijrosi hududiy bo'limlar inspektorlarining nazorati ostiga olingan.

Bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalardagi qoidabuzarliklarni bartaraf etmagan hamda yo'l qurilishi obyektlarida normativ hujjatlari talablari buzilishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarga nisbatan "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi

kodeksning 99 va 147-modallari asosida **jami 450 ta** (*shu jumladan: buyurtmachilarga – 84 ta, loyihachiga – 1 ta, pudratchilarga – 268 ta, qazish ishlari bo'yicha – 97 ta*) ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, sud organlariga yuborildi.

Qonunchilik hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar buzilishiga yo'l qo'ygan tashkilotlarga bajarilishi majburiy bo'lgan **351 ta** (*shu jumladan: buyurtmachilarga – 159 ta, loyihachilarga - 31 ta, pudratchilarga - 45 ta, qazish ishlari bo'yicha – 116 ta*) taqdimnoma kiritildi.

Hisobot davrida qurilishi tugallangan **1377 ta** yo'l obyektlarini foydalanishga qabul qilish komissiyalarining ishida mutaxassislarning ishtiroki ta'minlandi va quyidagilar amalga oshirildi:

1297 ta obyekt, *shu jumladan: 1248 ta yo'l obyekti hamda 49 ta sun'iy inshoot obyekti* foydalanishga qabul qilindi;

37 ta obyektning ishchi komissiyasi dalolatnomasi rasmiylashtirildi va buguni kunda davlat qabul qilish komissiyasi tomonidan ishlar davom etmoqda;

43 ta obyektning foydalanishga qabul qilish ishlari davom etmoqda.